

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

Hikoyadan qanday ibrat oldingiz?

*Fikrni davom ettirishadi: *Fayzli ko'chalar...*

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

Hikoyaning mazmunini so'zlab bering. Tasavvuringizdagi fayzli, gulzor ko'chaning rasmini chizing.

6-Mavzu: Odob-salomdan boshlanadi

Darsning maqsadi:

- Shuhrat Rahimovning "Salomlashish odobi" she'ri bilan tanishtirish;
- salomlashish qoidalari bilan tanishtirish;
- hozirjavoblik qobiliyatini shakllantirish.

Tayanch so'zlar: salomlashish odobi, assalomu alaykum, tabassum.

Didaktik materiallar: mavzuga oid rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq: *So'zlar ishtirokida bitta gap tuzing.*

Qo'l, tabassum, salom

II. O'tilganlarni takrorlash. (7 daqiqa)

"Bizning ko'cha" hikoyasining mazmuni so'zlab beriladi. Fayzli, gulzor ko'chaning rasmi ko'riladi.

III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)

Amaliy topshiriq: Mashq daftaridagi pufakchalardagi quvnoq harflardan so'z hosil qiling. (Assalomu alaykum)

Muhokama uchun savollar.

1. Sizda qanday so'z hosil bo'ldi?
2. Bu so'zni qachon aytamiz?
3. Bu so'zni har doim to'g'ri talaffuz qilamizmi?

Mavzuni tushuntirish.

Suhbat uyushtiriladi.

Odob “Assalomu alaykum” soʻzidan boshlanadi. “Assalomu alaykum” soʻzi – sizga tinchlik, salomatlik tilayman degan maʼnoni bildiradi. Kichik yoshdagilar yoshi ulugʻlarga, ulov mingan odam piyodaga, piyoda ketayotgan kishi oʻtirganga, ozchilik koʻpchilikka salom beradi. Qoʻlimizni koʻksimizga qoʻyib, tabassum bilan salom berish odobdandir.

Matn ustida ishlash.

Shuhrat Rahimovning “Salomlashish odobi” sheʼri oʻqitiladi. Sheʼr yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Odob nimadan boshlanadi deb oʻylaysiz?
2. Salom qay holatda beriladi?
3. “Assalomu alaykum” soʻzining maʼnosi nima?
4. Salomlashish qoidalari bilasizmi?

Sheʼr matnidagi notanish soʻzlar yuzasidan lugʻat ishi oʻtkaziladi.

gʻavgʻo – qiy chuv, shovqin, betartib ovozlari.

chaman – gulshan, gulzor, gul koʻp joy.

ziynat – bezak, husn, koʻrk.

axloq – muomala, xatti-harakat odobi.

minbar – baland kursi.

“Ifodali oʻqish” mashqi.

Sheʼrni ifodali oʻqish mashqi oʻtkaziladi. Oʻqituvchi sheʼrni ifodali oʻqishni boshlaydi. Oʻquvchilar yarim ovozda oʻqib oʻqituvchiga joʻr boʻladi.

“Qofiyadoshini top” mashqi.

Sheʼrdagi qofiyadosh soʻzlar ogʻzaki aniqlanadi, juftlab aytiladi: *minbari-gavhari, kalomdir-salomdir, maʼnosi-gʻavgʻosi, silaydi-tilaydi...*

Mashq daftari bilan ishlash.

Daftardagi topshiriqlar bajariladi.

“Adashgan harflar” mashqi.

Soʻzdagi adashgan harflardan toʻrtlik hosil qilinadi va yoziladi.

Oʻquvchilarga boshqa davlatlarda salomlashish odatlari haqida maʼlumot berish tavsiya qilinadi.

Bu qiziq!

Filippinliklarda salomlashishning qadimiy anʼanasi saqlanib qolingan. Uchrashganda, yoshi yoki maqomi jihatdan kichikroq boʻlgan odam, boshqa odamning oʻng qoʻlini olib, peshonasiga tekkizishi kerak.

Yaponiyada, Osiyoning boshqa ko'plab mamlakatlarida bo'lgani kabi, salomlashish muloyim ta'zim sifatida qabul qilinadi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

Darsda nimalarni bilib oldingiz? Nega odob salomdan boshlanadi deyiladi?

**Fikrni davom ettirishadi: Biz bugun darsda...*

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

She'rni ifodali yod oling. Boshqa davlatlardagi salomlashish odatlari haqida ma'lumot to'plang.